

YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA EKOLOGIK JIHATLARNING USTUVORLIGI

Xasanov Fayzullo Fazliddin o'g'li

TIQXMMI MTU Buxoro tabiiy resurslarni

boshqarish instituti doktoranti. Tel: +99893 453 37 37, fayzik4475545@gmail.com

ANNOTATSIYA: Ushbu maqolada yer resurslaridan samarali foydalanishda ekologik jihatlarning ustuvorligi haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan .

Kalit so'zlar: yer resurslari, ekologiya, degradatsiya, unumдорлик, melioratsiya, ixota, geobotanik tadqiqotlar, rekultuvatsiya.

Bugungi kunda yer resurslaridan foydalanish jarayonida, yer egalari va yerdan foydalanuvchilarga qo'yilgan talablar qatorida ekologik talablar ham alohida ahamiyat kasb etadi. Chunonchi, yerlarni muhofaza qilish masalasi mamlakatimiz qonunchiligidagi ham alohida belgilab qo'yilgan.

Yer resurslaridan har tomonlama oqilona foydalanish, ularni muhofaza qilish va natijada yer resurslari bilan bog'liq ekologik va boshqa muammolarni oldini olish ilm-fan va sohaning dolzarb masalalaridandir.

Ekologik-iqtisodiy munosabatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirishga mo'ljallangan qishloq xo'jalik yerlari, shu jumladan mineral o'g'itlarga boy tuproqning hosildor qatlamidan iborat bo'lgan haydaladigan yerlar eng qimmatli yerlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi yer munosabatlarini rivojlantirish tendensiyasi yerdan oqilona foydalanish va uni muhofaza qilishni yaxshilash zaruriyatini talab etadi. Binobarin yer resurslaridan foydalanish jarayonida quyidagi bir qator muammolar vujudga kelmoqda:

1. Tuproqning shamol va suv yeroziyasi, ularning botqoqlanishi, emirilishi, qurg'oqlanishi, sho'rланishi keng tarqalmoqda;
2. Asta-sekin qishloq xo'jaligi muomalasidan chiqayotgan buzilgan va rekultivatsiyalanmagan yerlarning soni ko'paymoqda;
3. Qishloq xo'jaligida yerlarning pestitsid, sanoat ishlab chiqarishining zararli unsurlari bilan ifloslanishi holatlari, yerlarning buzilishi holatlari oshmoqda, bu esa ularning boshqa yer toifasiga o'tkazishni yoki qayta tiklashni talab etmoqda;



4. Yerlardan oqilona foydalanish va ularni muhofaza qilish borasidagi yer qonunchiligi talablarini buzish jarayoni bormoqda va chuqurlashmoqda.

Ana shu omillarni hisobga olgan holda, O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi sohada islohotlarni yanada chuqurlashtirish va innovatsion texnologiyalarni qo‘llash, oziq-ovqat xavfsizligini ta’minalash, aholiga sifatli mahsulotlar yetkazib berish, eksport geografiyasini kengaytirishdek ustuvor masalalarda dasturilamal bo‘lib xizmat qilmoqda.

Yer qonunchiligini takomillashtirish va qo‘llash bo‘yicha barcha tadbirlar amalda bu kabi salbiy jarayonlarni bartaraf etish va oldini olishga qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida yerlarni muhofaza qilishni ta’minalashga qaratilgan qonun hujjatlari orasida asosiy o‘rin Yer kodeksiga tegishli bo‘lib, uning 11 bobi bevosita yerlar muhofazasiga bag‘ishlangan.

Yer kodeksining 79-moddasida ta’kidlanishicha, yerkarni muhofaza qilish ulardan belgilangan maqsadda, oqilona foydalanish, tuproq unumdorligini, o‘rmon fondi yerlarining samaradorligini tiklash va oshirish, qishloq xo‘jalik oborotidan va alohida muhofaza etiladigan hududlarning yerkarni tarkibidan yerkarning asossiz ravishda olib qo‘yilishi oldini olish, ularni zararli antropogen ta’sirdan himoya qilishga qaratilgan huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy, texnologik va boshqa tadbirlar tizimini qamrab oladi.

Yerdan oqilona foydalanishning mazmuni shunda namoyon bo‘ladiki, bunda tabiiy resurslarni optimal etkazib beruvchi holati doimiy qo‘llab-quvvatlanishi, atrof tabiiy muhit uchun tiklab bo‘lmas oqibatlar kelib chiqishiga yo‘l qo‘ymaslik lozim bo‘ladi. Bunday oqibatlarga yerkarning buzilishi, o‘simgilik va hayvonot dunyosining ayrim turlarining yo‘q bo‘lishi, Orol dengizining qurishi va boshqalar misol bo‘la oladi.

Tabiatni muhofaza qilish qonunchiligidagi hosildor tabiiy ekologik tizimlarni va tabiiy muvozanatni buzuvchi, iqlimi va Yer azon qatlaming noqulay o‘zgarishi, o‘simgilik va hayvonot genetik fondining nobud bo‘lishi bilan bog‘liq yohud inson salomatligi va atrof tabiiy muhit uchun tiklab bo‘lmas oqibatlar keltirib chiqarishi mumkin bo‘lgan xalq xo‘jaligi loyihamarini ishlab chiqish va amalga oshirish ta’qiylanadi.

Yerning buzilishi jarayonini ikki toifaga ajratishimiz mumkin:

birinchisi – tabiiy-iqlimi, jumladan, iqlimming global isishi, yer tuzilishi (yirik qiyaliklar, tabiiy yer osti suvlari oqishi kuzatilmagan pasttekisliklar) bilan bog‘liq omillar va boshqalar;



XX asr mobaynida umumharorat – 0,6 C° o’sdi. Bashoratlarga qaraganda, 2030 yilda harorat 1 C° darajaga o’zgarishi, 2100 yilga borib esa, muzliklarning erishi natijasida okeanlar sathi taxminan 0,09 – 0,88 m. ko’tarilishi, natijada yer yuzining ba’zi hududlari suv ostida qolish xavfi mavjud.

ikkinchisi – antropogen faoliyat bilan asoslanib, yer-suv resurslaridan ekologik talablarni buzgan holda foydalanish va o’zlashtirish bilan bog‘liq.

O’zbekiston Respublikasi Tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi ma’lumotlariga¹ ko‘ra, yerlarning buzilishining asosiy sabablariga quyidagilar kiradi:

- yangi yerlarni tegishli meliorativ tayyorgarliklarsiz o’zlashtirish va ulardan foydalanish;
- paxta va g‘alla etishtirishda almashlab ekishdan etarlicha foydalanmaslik, hamda yerda yerda bir xil mahsulot etishtirishning ustuvorligi;
- sug‘oriladigan hududlardan yerlardan foydalanishning ekstensiv usullaridan foydalanishning keng tarqalganligi;
- sug‘orish uchun qo‘llanadigan suvning nosamaradorligi;
- qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida suvni tejovchi va suv qo‘yish texnika-texnologiyasining zaif joriy etilganligi;
- yer usti suv oqimlariga kollektor-drenaj va oqava suvlarni chiqazish;
- qurg‘oq va aylov yerlarni o’zlashtirish;
- kollektor-drenaj tizimining yetarli rivojlanmaganligi;
- zaharli kimyoviy va minyeral o‘g‘itlardan nooqilona foydalanish;
- buzilgan yerlarni rekultivatsiya qilish va tiklash borasidagi choralarining etarli emasligi;
- va boshqalar.

Ob’ektlar, imoratlar va inshootlarni joylashtirish, loyihalash, qurish va ulardan foydalanishga oid ekologik talablar haqida O’zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 80-moddasida bayon qilingan. Jumladan ushbu moddaning 4-qismida shunday deyiladi: “*Yerlarni hosildan qolishdan yoki buzilishdan himoya qilish choralarini bilan ta’minlanmagan hamda ekologiya ekspsyertizasining ijobiy xulosasi bo‘limgan ob’ektlarni foydalanishga topshirish va bunday texnologiyalarni qo‘llash taqiqilanadi.*” Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonun hujjatlarida yerdan foydalanish va muhofaza qilish, tuproq sifatiga oid ekologik talablar mustahkamlangan.

¹ Госкомприрода Республики Узбекистан. Национальный доклад за 2002 – 2004 годы. - С. 72



Sanoat, kommunal va omborxona ob'ektlarining sanitariya-muhofaza zonasida uylar, ta'lif muassasalari, sog'liqni saqlash, dam olish ob'ektlari, jismoniy tarbiya, sog'lomlashtirish va sport inshootlari, bog'dorchilik-uzumchilik va polizchilik shirkatlari joylashtirilishiga, shuningdek, qishloq xo'jaligi mahsuloti etishtirilishiga yo'l qo'yilmaydi.

Bundan tashqari, Shaharsozlik kodeksining 52-moddasiga muvofiq, shaharlar atrofida shahar atrofi zonasi tashkil etiladi. Shahar atrofi zonalarida sanitariya va rekreatsion vazifalarni bajaradigan ko'kalamzor zonalar ajratiladi. Ko'kalamzor zonalarda atrof muhitga zararli ta'sir ko'rsatadigan xo'jalik va boshqa xil faoliyat olib borish taqilanganadi.

Aholi punktlarini ko'kalamzorlashtirish tegralari shahar atrofidagi o'rmonlar, o'rmonpark himoya tegralari, aholi yashaydigan va sanoat zonalarining sanitariya muhofaza zonalari shaklida belgilanganadi. Bu zonalar ekologik, sanitari-gigienik, rekreatsiya-sog'lomlashtirish vazifalarini bajaradi. Ushbu hududlar huquqiy holatining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lib, ushbu joylarda o'simlik dunyosiga zarar etkazishi mumkin bo'lgan barcha faoliyat taqilanganadi.

Muxtasar aytganda yer resurlaridan foydalanishning ekologik talablari, yer resurslarini muhofaza qilish shartlari va tartibi bu boradagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan bo'lsada ularning amalga oshirilishi yuzasidan ba'zi bir normalarni kiritish maqsadga muvofiqdir. Shuni alohida ta'kidlash lozimki, Shaharsozlik kodeksida sanitariya muhofaza zonalarini tashkil etish imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsada, ushbu zonalarni belgilash, ularning miqdorlarini aniqlashga qaratilgan qat'iy talablar kiritilmagan. Shu bois mazkur kodeksga tegishli qo'shimchalar kiritish kerak deb hisoblaymiz. Bundan tashqari, ushbu zonalarni belgilash tartibi, ularning miqdorlari bo'yicha talablar va aniqlash jarayoni to'g'risida maxsus nizom qabul qilinishi lozim deb hisoblaymiz. Biz yer maydonlaridan yanada samarali foydalanish tizmini qachonki yerlarning ekologik holatini yaxshilab bo'lganimizdan keyingina tashkil eta olamiz. Buni aslo unutmasligimiz kerak

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Yer kodeksi. 1998.30.04
2. Xasanov, F., Egamova, D., & Asatov, J. (2023). Ekologik berqarorlik sharoitida qishloq xo'jaligi yerlarini loyihalashning samaradorligini takomillashtirish chora-tadbirlari. Центральноазиатский журнал образования и инноваций, 2(3), 138-143.



Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies

Hosted online from Paris, France.

Date: 19th April, 2024

ISSN: 2835-3730

Website: econferenceseries.com

3. Xurramovich, N. O., Hafiz o'g'li, J. K., & Fazliddin o'g'li, X. F. (2022). Бухоро воҳаси тупроқларининг морфологик белгилари ва механик таркиби. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(13), 86-95.
4. YER RESURSLARIDAN SAMARALI FOYDALANISHDA EKOLOGIK JIHATLARNING USTUVORLIGI.
XF Fazliddin o'g'li, FS Shuxratovich, ED Adizovna - ... APPROACH TO THE MODERN EDUCATION SYSTEM, 2023
5. www.ziyonet.uz
6. www.google.com



E-Conference Series

Open Access | Peer Reviewed | Conference Proceedings